

***Bektursunboyeva Bonu Anvarbek qizi.***

*Xorazm viloyati Yuridik Texnikumi 1-bosqich o'quvchisi*

***Annotatsiya.*** Ushbu maqolada kitobxon yoshlarning muayyan bir sohada erishgan yutuqlari, kitobxon yoshlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar haqida, ijtimoiy tarmoqlarda va har qanday vaziyatda ham o'zining bilimdonligi bilan ajralib turuvchi xususiyatlari, prezidentimizning kitobxon yoshlarga qaratgan e'tibori va buyuk allomalarning buyuk kitoblari haqida so'z yuritiladi.

***Kalit so'zlar:*** kitobxon yoshlar, buyuk yozuvchilar, kitobxonning hayotdagi o'рни, yaratilgan shart- sharoitlar, kitobxonning jamiyatdagi o'рни, kitoblarga bo'lgan munosabat.

***АННОТАЦИЯ.*** В данной статье раскрываются достижения юных читателей в определенной области, условия, созданные для юных читателей, особенности их знаний и общественных отношениях и в любой ситуации, внимание нашего президента к юным читателям, великие книги великих ученых.

***КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:*** юные читатели, великие писатели, роль книги в жизни, созданные условия, роль читателя в обществе, отношение к книгам.

***ABSTRACT:*** This article reveals the achievements of young readers in certain field, the conditions created for young readers, the characteristics of their knowledge is social relations and in any situation, the attention of our president to young readers, and the great books of great scholars.

***KEY WORDS:*** Young readers, great writers, the role books in life, created conditions, the role of the readers in society, attitude towards books.

## **KIRISH**

Jamiyatimizda yuz berayotgan o'zgarishlar kitobxon yoshlar orasida muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, kitobxon yoshlarning o'рни davlatimizda ham katta

ahamiyatga ega. Hozirgi kitobxon yoshlarga davlatimiz tomonidan yaratilgan shart-sharoitlarni ta'riflashga til o'jiz. Shu bois kitobxon yoshlar orasida "Yosh kitobxon" tushunchasi borgan sari keng qo'llanilmoqda.

Davlatimizda "Yosh kitobxon" tanlovini o'tkazish an'anaga aylangan. Millionlab yoshlarni birlashtirib, kitobxonlarni kashf etayotgan bu tanlovda ko'pchilik yoshlar qatnashmoqda. Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish ayni paytda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Va tabiiyki, nashriyotlar zimmasiga bugungi kun o'quvchisiga tanlangan, bola tafakkurini yuksaltiradigan adabiyotlarni nashr etish vazifasini qo'ydi. Ushbu ma'rifiy jarayonda faol ishtirok etish va yosh kitobxonlarga yuksak saviyadagi adabiyotlarni taqdim etish maqsadida "Yangi asr avlodi", "Yosh kuch matbuoti", "Yoshlar nashriyot uyi", "Sharq" nashriyoti, "Navro'z" nashriyoti, "Ilm-ziyo-zakovat" kabi nashriyotlari yangidan yangi loyihalarga qo'l urmoqdalar. Loyihalarning maqsadi— avvalo maktab o'quvchilarini qamrab olish, bu borada ularning badiiy adabiyotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, maktab darsliklariga qisman kiritilgan yoki faqat nomlari zikr etilgan asarlarni to'liq holda taqdim etish, shuning barobarida maktab o'quvchisi mutolaa etishi lozim deb topilgan, mutaxassislar tomonidan "o'qish shart" deya tavsiya etiladigan eng sara o'zbek va jahon adabiyoti namunalarini o'quvchilarga tanishtirishdan iborat<sup>1</sup>. Loyihalar doirasidagi kitoblar yuz xil nomni tashkil etadi va kitobxonlar ushbu kitoblarni mutolaa qilishlari lozim. Bir yilda o'nta, o'n yilda yuzta kitob o'qigan kitobxon katta hayotga qadam qo'yar ekan, uning intellekti, dunyoqarashi, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, televizor ko'rgan o'nta boladan ancha yuqori bo'ladi. Kitobxonlarni keng fikrli, salohiyatli, zakovatli bo'lib voyaga yetishida hissa qo'shadigan yuz nomdagi kitoblar davlatimiz kutubxonalaridan o'ziga yarasha joylarni egallagan.

### **NATIJA**

Shunday qilib kitoblar qalbimizni ilitadi, ko'nglimizni yoritadi, baxtli va saodatli, nurli kunlarga boshlaydi. So'nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan kitob mutolaasi muhimligi, yoshlar, rahbarlar orasida bu fazilatni targ'ib qilish haqida ko'p bora ta'kidlanmoqda. Amalga oshirilayotgan ma'naviy- ma'rifiy izchil

islohotlar jarayonida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aslida ham , kitob va kitobxonlik insonlar ong- tafakkurini teranlashtirib , qalbiga eng go'zal ezgu niyatlarni joylaydigan , ularni yaxshiliklar olamiga yetaklaydigan , ma'naviyat sarchashmasidir. Shuning uchun ham doim kitob o'qishga ehtiyojimiz bor. Ba'zan odamlar moddiy manfaatlar , zamon yangiliklari , internet tizimi ichra kuni va tuni qanday o'tganini ham bilmay qoladi. Bunday yashash tarzidan zerikadi. Nimanidir sog'inganday , izlab topa olmayotganday bo'laveradi. Yuragi siqilib , go'yoki o'ziga sig'maydi. Ko'ngil bir ojiz shirin so'z , bir taskin , malham istaydi. Shunday paytda biz, albatta, kitob varaqlashga tushamiz . Ko'nglimizga yoqqan she'rmi, hikoyami, xoh u qatra bo'lsin yoki salmoqli qissalarni o'qiy boshlaymiz, o'qiyveramiz. Nafaqat o'qiymiz, balki asardagi voqealar rivojiga kirib ketamiz va o'sha yerda yashaymiz. Mamlakatimizda yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, aholining kitobxonlik ko'nikmasini yuksaltirish, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng yaxshi namunalarini internet tarmoqlariga joylashtirish va keng targ'ib qilish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, kelajak avlod uchun, bolalar adabiyotini rivojlantirish , o'quv adabiyotlari va darsliklarning saviyasini ko'tarish uchun zarur bo'lgan barcha ma'naviy, huquqiy va moddiy asoslar yaratildi<sup>2</sup>.Zamonning talabi katta , shiddati esa tez. Bugunning yangi kashfiyotidan hayratga to'la taassurotingiz arimay turib boshqa bir yangilik kitobxonni o'z sirliligiga tortishi ham bor gap. Albatta, yangi-yangi ixtirolar, hayotimizga kirib kelayotgan turli texnika vositalari mehnatimizni yengillashtirishi , har jabhada bizning imkoniyatlarimizni oshirishi ayni haqiqat. Ammo jamiyat hayotida qanchadan qancha kashfiyotlar qilinmasin inson ma'naviy dunyosining rivojida kitobning o'rni beqiyos. Kishi ruhiyatining ma'nan boyishida, xalqparvarlik, diyonat, oliyjanoblik, insoniy fazilatlarining kamol topishida hech bir zamon ixtirosi adabiyotchilik kuchga ega emas. Zero, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 13- sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va

kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risidagi" Qarori ham hozirgi kunimizda yosh avlod

tarbiyasi yo'lida adabiyotning muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi<sup>3</sup>.

Kitobxon mutolaasi vaqtida kitoblardagi qahramonlar diqqatdan chetda qolmaydi. Zero, adabiyot mehrobidagi abadiyat qalbimizni ezgulik, samimiylik bilan to'ldirsa ajab emas!

### **XULOSA**

Shunday qilib, yurtimizda kitobxonlarga sifatli kitoblar yetkazib berish borasida ham bir qancha yangi loyihalar amalga oshirilmoqda. Natijada, kitobxonlar ko'ngliga tez va oson kirib boradigan kitoblar kun sayin ko'paymoqda. Yangi O'zbekiston kitobxonlariga atalgan kitoblar hayot maydonining eng

yuksak cho'qqisiga chorlab turadigan porloq mash'alaga o'xshaydi. Kitoblarning har bir sahifasi

kitobxonlarni izlanishga, intilishga, yangiliklar yaratishga chorlab, soatma-soat balki, soniyama - soniya ilhomlantirib turadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "Yangi asr avlodi" tahririyati 2020-yil.
2. Oydin Ibrohimova "Yangi O'zbekiston" gazetasi. 21.04.2022.
3. Adabiyotshunos —Ravshanov Alisher "Navro'z" nashriyoti 2019-yil.